

QISHLOQ JAMOASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Haqliev V.B.

*O'zbekiston Respublikasi IIV 2-son Toshkent Akademik litsey katta o'qituvchisi,
tarix fanlari nomzodi, dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qishloq jamoasi nazariyasi haqida, qishloq jamoasining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Yangi O'zbekiston barpo etishda ushbu masalaga alohida e'tibor berilishi muhimdir.

Kalit so'zlar: Qishloq jamoasi, hind jamoasi, mintaqa, hudud, Markaziy Osiyo, O'zbekiston, ibtidoiy davr, jamiyat rivojlanishi, kishilar, jamoa, o'zaro munosabat.

Qishloq jamoasi nazariyasi haqida to'xtalar ekanmiz, qishloq jamoasi nima? - degan haqli savol tug'iladi. Bu haqda hind jamoasini mukammal o'rgangan olimlardan L.B.Alaev: "Tadqiqot ob'ekti bo'lgan qishloq jamoasi ilmiy adabiyotlarda qat'iy ta'rifga ega emas. Qishloq jamoasini ta'riflashni qiyinligi uning xilma-xilligidir," - deb ko'rsatadi³⁸. Haqiqatan ham har bir mintaqaning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'sha hududga mos fikrlarni ko'rsatib berish lozimdir.

Markaziy Osiyo, shuningdek, O'zbekiston xududidagi qishloq jamoasi haqida qator olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida to'xtatib o'tganlar. Biroq, ular qishloq jamoasi nazariyasiga nisbatan tugal fikrlarini bayon etmaganlar. Quyida shu masalaga doir o'z fikr-mulohazalarimizni bildirishga harakat qilamiz:

Qishloq jamoasi ibtidoiy davrdan buyon mavjud bo'lgan, jamiyat rivojlanishi bilan ham yo'qolmay, balki uning rivojlanishiga ma'lum darajada hissa qo'shib kelayotgan kishilarning jamlanmalaridan biridir. U tabiiy holda vujudga keladi va jamoa paydo bo'lgan joyda ijtimoiy aloqa ancha mustahkam bo'ladi. Qishloq jamoasi a'zolari bir-birlarini juda yaxshi taniydilar va deyarli har kuni muloqotda bo'lib, o'zaro munosabatga kirishadilar.

Qishloq jamoasi bu kishilarning ijtimoiy hayot zaruriyati tufayli o'zaro doimiy birlashuvidir. Mana shu tufayli u asrlar sinovidan eson-omon o'tib kelgan. Qishloq jamoasini ma'lum bir joyga xos bo'lgan kishilar guruhi sifatida tushunish mumkin. Chunki uning a'zolari ma'lum jo'g'rofiy yaqinlikda yashaydilar. Shuning uchun jamoaning joylashuv chegarasini aniqlash mumkin. Qishloq jamoasi katta-kichik oilalardan tashkil topgan. Bu oilalarning jamoa bo'lib birlashuvi ularning oziq-ovqatga bo'lgan talabini ma'lum miqdorda qondirgan. Qishloq jamoasidagi takror ishlab chiqarish uning a'zolarini doimiy yashashini ta'minlagan.

³⁸ Алаев Л.Б. Сельская община Северной Индии. -М.: Наука, 1981. -240 с.

Qishloq jamoasi qo'ni-qo'shnichilik munosabatlariga asoslangan bo'lib, uning a'zolarini o'zaro xo'jalik, ijtimoiy va madaniy yaqinlik bir-biriga bog'lab turgan. U davlat paydo bo'lgandan keyin ham yo'qolmay, balki uning ishonchli bo'g'ini bo'lib qolishi qishloq jamoasining ahamiyati nechog'lik yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Qishloq aholisini jamoa va oila hayotidagi urf-odatlarini bajarishdagi ishtiroklari ularni jipslashtirgan. Agar jamoa a'zolaridan kimdir jamoaning ichki hayotidagi me'yorlarni buzsa, unga nisbatan jamoadoshlar tomonidan eldan ajratish jazosi qo'llanilgan. Bunday kishining to'y-ma'arakalariga hech kim bormagan, uni jamoat ishlariga chaqirishmagan. Shunday qilib, u butunlay yakkalanib qoladi va oqibatda jamoa oldida kechirim so'raydi yoki oila a'zolari bilan jamoani tark etishga majbur bo'ladi.

Qishloq jamoasi o'zini-o'zi boshqarish bo'g'iniga ega bo'lgan. Turli xavf-xatarlarda jamoa a'zolarining o'zaro birdamligi muhim ahamiyat kasb etgan. Qishloq jamoasining g'oyaviy birligi a'zolarining to'y, bayram, dafn va boshqa tantanalarda uyushib ishtirok etishida aks etgan. Qishloq jamoasi mustaqil birlik, umumiy ishlab chiqarishga ehtiyoj, an'analarning, oila va nikoh aloqalarining birligi ko'rinishiga ega bo'lgan. Qishloq jamoasi umumiy sug'orish tarmog'i bilan yagona maydonda joylashgan.

Shaharda jamoaga qarashlilik mahallaning ma'lum hududida³⁹, qishloq joylarida esa qishloqda yashashlik bilan aniqlangan. Qishloq jamoasiga kasbi-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, qishloq aholisining hamma a'zosi kirgan.

Ijtimoiy munosabatlarning negizi bo'lmish qishloq jamoasi XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'zbekistonning barcha hududlarida saqlanib qolgan. Qishloq jamoasining saqlanib qolishi dehqonchilik va qishloq ijtimoiy turmushining o'ziga xos xususiyatini aniqlashga imkon beradi. Shuning uchun bu masala ko'pdan buyon tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Shu o'rinda M.S.Andreev, N.A.Kislyakov, A.N.Kondaurov, L.F.Monogarova, Ye.M.Pesheroва, N.N.Yershov, I.Muhiddinov, S.Ye.Tolibekov, N.E.Masanov, S.Z.Zimanov, S.M.Abramov, I.Nurakov, V.M.Ploskix, Ch.Yazlyev kabilarning Markaziy Osiyodagi mavjud jamoa hayotini ko'rsatib bergan ilmiy asarlarini ta'kidlab o'tish joizdir⁴⁰.

³⁹ Кишлоқ жамоасидаги ижтимоий ҳаёт бутун бир кишлоқ жамоасининг фаолиятида муҳим бўлган, чунки Шимолий Фарғонада юкорида кўрсатиб ўтганимиздек кишлоқлар жуда катта бўлмаган ва аксинча шаҳарда эса жамоа ҳаётида маҳалла асосий ўрин эгаллаган. Қаранг: Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. -М.: Наука, 1976. -С.365.

⁴⁰ Қаранг: Пешерова Е.М. Молочное хозяйство горных таджиков и некоторые связанные с ним обычаи // Андреев М.С. По Таджикистану. Отчет по экспедиции 1929 года. Вып.І. -Т., 1927. С.42-59; Кондауров А.Н. Патриархальная домашняя община и общинные дома у ягнобцев //ТИЭ. Т.ІІІ, вып.І. сер.Этн. -М-Л., 1940; Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Вып.І. -Сталинабад, 1953; Зиманов С.Э. Общественный строй казахов первой половины XIX века. -Алма-Ата, 1958; Нураков И. К вопросу о

Qishloq jamoasi tadqiqotimiz ob'ekti Shimoliy Farg'onada ham saqlanib qolgan. Bu yerda asosan bir qishloq bir jamoani tashkil etgan. Masalan, Chust tumanidagi Olmos, Karkidon, Kosonsoy tumanidagi Tergachi, To'raqo'rg'on tumanidagi Shaxand kabi katta qishloqlar bir jamoani tashkil etgan. Qishloq jamoasidagi jamoa ko'rinishlari yer-suvdan, jamoa buyumlaridan umumiy foydalanish, o'z-o'zini boshqarish, to'y va dafn marosimlarini jamoa bilan o'tkazish va hokazolarda namoyon bo'lgan.

Rossiyalik olim A.F.Middendorf qishloq jamoasi haqida quyidagicha yozadi: "Oqsoqollik Farg'ona vodiysida markaz hisoblanadi. Uning atrofida hamma jamoa boshqaruvi aylanib yuradi, buning ustiga, u ajoyib tashkil etilgan"⁴¹. Demak, oqsoqol boshqarib turgan qishloq jamoasining ahamiyati yuqori bo'lgan.

1876 yilda Chor Rossiyasi Farg'ona vodiysidagi xalq harakatini bostirib, shu yili 25 fevral qarori asosida Qo'qon xonligi tugatildi va o'rniga Farg'ona oblasti tashkil topdi. Farg'onada ham boshqaruv harbiy usulga o'tkazildi. Oblast uezdlarga, uezd volostlarga, volost esa qishloq jamoalariga bo'lindi va qishloq jamoasini mahalliy xalq vakillari tomonidan boshqarilishi saqlanib qolindi⁴².

Farg'ona vodiysida Rossiya imperiyasi hokimiyati o'rnatilgandan so'ng qishloq jamoasining oqsoqollik boshqaruvini bekor qilishga urindilar, ya'ni "Qishloq jamoasi oqsoqolligini Rossiyaning Yevropa qismidagidek, ko'p qishloqlarni birlashtirib boshqarmoqchi bo'ldilar. Dastlab Qo'qonda shunday tajriba qiligan, lekin o'sha zahoti bundan voz kechishga majbur bo'ldilar. Chunki bu tadbir xalqning noroziligiga olib keldi. Oqibatda hammasini ilgaridagidek qoldirishdan o'zga chora qolmadi"⁴³.

Ushbu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, asrlar davomida shakllanib kelgan qishloq jamoasi va uni boshqarish tartibi uzoq tarixiy davrda sinalgan bo'lib, uni yo'qotish faqat zarar keltirardi, xolos.

Shimoliy Farg'onaning o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'lganki, qishloq jamoasi davlat ma'muriyati tomonidan boshqarilib turilganda ham, u huquqiy, xo'jalik va ijtimoiy munosabatlarda mustaqil bo'lgan. Mahalliy aholi qishloq jamoasini "jamo" iborasi bilan atamasalar-da, unga nisbatan "el", "yurt", "ko'pchilik" kabi atamalar qo'llanilgan⁴⁴.

пастбищно-кочевой аильной (аульной) общине у киргизов // ТДГНС. 1969 г. ЛОИЭ. -Л., 1969. С.41-43; Язлыев Ч. Сельская община у туркмен в XIX-первой четверти XX века. Дисс... д-ра ист.наук. - Ашхабад, 1990.

⁴¹ Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. -СПБ., 1882. С.170-171

⁴² ЎЗР МДА. Ф. №19, оп. №1, ед.хр.5967, л.3.

⁴³ Миддендорф А.Ф. Кўрсатилган асар. С.170-171.

⁴⁴ Дала материаллари. 1990 йил август. Ахборотчи Йўлдошев Исмаилов, 1898 йилда туғилган, Чуёт ноҳиясининг Какликқўрғон қ-ғи.

R.A.Rassudova o'z maqolasida: "Farg'ona vodiysidagi jamoalar nafaqat o'zining ishlov beradigan yerining chegarasini, balki yaylov va bo'sh yerlarning ham chegarasini bilgan. Farg'ona jamoasida yerdan foydalanish masalasi qo'yilmagan va u (jamoas) yerlarni boshqarmagan"⁴⁵, deb ko'rsatadi. Bizningcha, R.Ya. Rassudova sug'oriladigan maydonlarda yerdan foydalanish masalasi qo'yilmaganligini nazarda tutgan bo'lsa kerak.

Shimoliy Farg'ona qishloqlari tog', qir-adirliklar oldiga va Sirdaryoning o'ng sohiliga yaqin yerlarga hamda Kosonsoy, Sumsar, G'ova, Chodak soylari bo'ylab joylashgan. Chorvachilik uchun yaylov maydonlarining kamayib borishi aholining o'troqlashuv jarayonini tezlashtirgan.

Shimoliy Farg'ona aholisi qishloqlarda qaerdan ko'chib kelganligiga qarab, qishloqning ma'lum joyida yashaganlar. Masalan, axborotchi Madaminov Fayzulla otaning aytishiga ko'ra, Shayon qishlog'idagi (Chust tumani) baqsuqliklar, ashvoqiliklar⁴⁶ alohida bo'lib yashaganlar. Shu tumandagi qipchoqlar to'plarga bo'lingan holda istiqomat qilganlar. Har bir to'p qavm-qarindoshdan tashkil topgan. XX asr boshlarida Kaklikqo'rg'on qishlog'ida ana shunday to'plardan 6 tasi bo'lgan va ular to'p boshlig'ining nomiga "to'p" so'zini qo'shish bilan atalgan. Masalan, Tursunboy to'pi, Azimboy to'pi va boshqalar⁴⁷.

Shimoliy Farg'ona qishloqlarini ikki qismga bo'lish mumkin. Birinchisi - sug'oriladigan dehqonchilik yaxshi rivojlangan pastki qishloqlar. Bularga Tergachi, Chindovul, Tepaqo'rg'on, Olmos, Shoyon va Sang qishloqlari kiradi. Mazkur qishloqlarda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida dehqonchilik madaniyati yaxshi taraqqiy etgan, yerni almashlab ekish va unga ishlov berish keng qo'llanilgan. Ikkinchisi, oz miqdorda dehqonchilik bilan birga, chorvachilik bilan ham shug'ullanuvchi yuqori qishloqlardir. Bularga Rezak, Ko'rnos, Qoraqo'rg'on, Dam, Xo'jaqo'rg'on kiradi. Ularning kattaligi va xo'jalik soni quyi qishloqlarga nisbatan kam bo'lgan. Masalan, XX asr boshlarida bu qishloqlarda xo'jalik soni o'rtacha 20 tadan 100 tagacha yetgan⁴⁸.

Har bir qishloq jamoasining don yanchadigan tegirmoni, yog' chiqaradigan objuvozi, umumiy qozoni va idish-tovoqlari bo'lgan. Umumiy qozonlardan to'y marosimlarida, ommaviy xalq bayramlarida va boshqa tantanalarda

⁴⁵ Рассудова Р.Я. Некоторые особенности сельских общин Зарафшанской и Ферганской долин на рубеже XIX - XX вв // ТДСЭ. -Т., 1973. С. 38.

⁴⁶ Бақсуқлиқлар ота-боболарини асли Тошкент вилоятидаги Бақсуқ қишлоғидан, ашвоқилиқлар эса Самарқанд вилоятидаги Ашвоқи қишлоғидан келганликларини таъкидлашади. Ахборотчилар Нодиров Қурбонали (1905 й.), Йўлдошев Валижон (1915 й.).

⁴⁷ Дала материаллари. Ахборотчи Ҳатамова Ховабу (1897 й.), Тошбоева Темиргон (1927 й.).

⁴⁸ Материалы Всероссийских переписей 1920. Перепись населения в Туркестанской республике. Вып IV. С.42-56.

foydalanishgan. Qozonlar xalq ichida "to'y qozon", "oshqozon" yoki "doshqozon" deb atalgan. Ular jamoa a'zolari o'rtasida pul to'planib, sotib olingan yoki biron kishi tomonidan "savob" yo'liga hadya qilingan. Qishloq jamoasida asosan ikki xil: osh pishirish uchun cho'yandan qilingan qozon, sho'rva va boshqa suyuq ovqatlar tayyorlash uchun alohida yengilroq qozon bo'lgan. Qozon oxirgi marta kimnikida ishlatilgan bo'lsa, o'shanikida turgan. Bundan tashqari, har bir qishloq jamoasida choy qaynatish uchun maxsus yasatilgan choygumlar bo'lgan. To'y va boshqa marosimlarda choygumlar yonma-yon qo'yilib, choy qaynatilgan⁴⁹.

Qishloq jamoasi dehqonlarining yerlarini 3 turga bo'lish mumkin: tomorqa, hayot va dala yerlari. Tomorqa yeri hovlini orqasida, uy yonida bo'lib unga piyoz, sabzi, har xil ko'katlar ekilgan. Hayot hovlidan alohida yerda bo'lib, asosan mevali daraxtlar, beda va boshqa ekinlar ekilgan. Dala yerlarida esa paxta, bug'doy, qovun, tarvuz yetishtirilgan. Kuzda hosil yig'ib-terib olingandan so'ng, dala yerlari jamoa yaylovi vazifasini ham o'tagan⁵⁰.

Jamoa uylari. Qishloq jamoasi erkaklarining yig'in joylari - mehmonxona, jamoa uylari (olovxona, gapxona), choyxona va masjid bo'lgan.

Ilmiy adabiyotlarda Markaziy Osiyoning qishloqlarida mehmonxonalar bo'lganligi ko'rsatilgan⁵¹. Mehmonxonalar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida vohada ko'p bo'lgan. Ularning ba'zilar xususiy, boshqalari esa jamoaga qarashli bo'lgan. Masalan, Chust nohiyasining Kaklikqo'rg'on qishlog'ida Do'lana buva masjidiga yaqin joyga ana shunday jamoa mehmonxonasi bunyod etilgan. Unda qishloq yig'inlari o'tkazilib turilgan, yo'lovchilar joylashtirilgan, bo'ydoqlar ko'pincha mehmonxonada tunab qolishgan. Kuzda dehqonchilik ishlari tugagandan keyin kechqururlari mehmonxona jamoa erkaklari bilan gavjum bo'lgan.

Mehmonxonalar qishloq jamoasi a'zolari ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega edi. Mehmonxona uchun zarur buyumlar o'rtada pul to'plab sotib olingan yoki badavlatroq kishilar ixtiyoriy ravishda in'om qilgan. Mehmonxonalar bir necha xonadan iborat bo'lib, jamoa a'zolari xonalarda yoshiga qarab o'tirishgan.

⁴⁹ Дала материаллари. 1993 йил. август. Ахборотчилар Қоратоев Абдумутал (1905 й.) Қоранкўл қ-ғи (Косонсой н.), Алимқулов Абдуқаюм (1912 й.) Дам қ-ғи (Чуст н.), Абдуллаев Ахмадали (1920 й.), Олчин қ-ғи, (Тўрақўрғон н.).

⁵⁰ Дала материаллари. 1993 йил август. Ахборотчи Маматов Ваққосхон (1906 й.) Қизилтепа қ-ғи (Чуст н.).

⁵¹ Кисляков Н.А. Кўрсатилган асар. С.115; Кондауров А.Н. Некоторые материалы по этнографии ягнобцев // СЭ. № 6, -М-Л., 1935. С.104. Кондауров А.Н. Патриархальная домашняя община и общинные дома у ягнобцев // ТИЭ. Т.III, вып. 1, сер. этн. -М-Л., 1940. С.22; Андреев М.С. Материалы по этнографии Ягноба. (записи 1927 - 1928 гг.) -Душанбе, 1970. С.107-109.

Mehmonxonada turli yangiliklardan xabardor bo'lingan, kelajakdagi ishlar haqida suhbat qurilgan. Mehmonxonalarda ichkilik, qimor o'ynash ta'qiqlangan⁵².

Bulardan tashqari, Shimoliy Farg'ona qishloqlarida jamoa binolaridan olovxona (Olovxona - olov uyi M.S.Andreev tomonidan Kosonsoy rayonida ham qayd etilgan.)⁵³, gapxona mavjud bo'lgan. Bu yerda kechqurunlari qishloq erkaklari to'planishgan. Ular to'kma-gap uyushtirganlar. Olovxonaning o'rtasida qishda olov yoqilib, atrofida isinib o'tirishgan, tomining o'rtasida esa tutun chiqib ketishi uchun maxsus tuynuk bo'lgan. Olov uchun o'tinni ham jamoa erkaklari birgalikda tayyorlashgan. Olovga qarab turish uchun oqsoqol tomonidan biron kishi tayinlangan. Uning atrofida erkaklar suhbat, askiya qilishgan, ertak, afsona va dostonlar aytishgan. Kechqurunlari ularning hikoyalarini, ertaklarini tinglash uchun o'smirlar ham kelishgan. Olovxonaga yo'lovchilar ham to'xtab o'tishgan⁵⁴.

Shimoliy Farg'onada qishloq erkaklarining muloqot joyi choyxonalar bo'lgan. Ular asosan katta qishloqlarda bo'lgan. Choyxona ba'zi qishloqlarda mehmonxona vazifasini ham o'tagan. Choyxonalarda erkaklar bir piyola choy ustida davra qurishib, turli mavzularda suhbat qurishgan, askiya, latifalar aytishgan, yangiliklardan bir-birlarini xabardor qilishgan.

Qishloqlarda asosiy to'planadigan joylardan biri masjid bo'lgan. Shu yerda ko'pincha peshin nomozidan asrgacha qolishib, bu vaqtda qishloq hayotiga aloqador muhim masalalarni muhokama qilishgan. Masjiddagi narsalar (gilamlar, sholchalar, katta qozonlar, idish-tovoqlar va boshqalar) butun jamoaning mulki hisoblangan. Ularni zaruriyati tug'ilgan har bir jamoa a'zosi vaqtinchalik foydalanish uchun olishi mumkin edi.

Xulosa qilib aytganda qishloq jamoasidagi ijtimoiy hayot butun bir qishloq aholisining faoliyatida muhim bo'lgan, chunki Shimoliy Farg'onada yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek qishloqlar juda katta bo'lmagan va lekin jamoa hayotida mahalla asosiy o'rin egallagan.

⁵² Дала материаллари. 1993 йил октябрь, Ғойипов Абдурахмон, 1915 йилда туғилган, Тўрақўрғон туманининг Олчин қ-ғи.

⁵³ Қаранг: Андреев М.А. Кўрсатилган асар. С.118.

⁵⁴ Ахборотчи Қосимов Сотимбой (1920 й.) Қорасув қ. (Косонсой н.)